

KLASTERLAR INNOVATSION TIZIMNING ASOSI SIFATIDA

Anarkulov Dilshod Abdumalikovich

o'qituvchi. Guliston davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11033783>

Annotatsiya. Mamlakat miqyosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda yangi yondashuvlarni izlash, shuningdek innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirish borasida qulay muhit yuzaga keltirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat klasterlari, innovatsiya, tadbirkorlik, samaradorlik, innovatsion infratuzilma, xizmat.

CLUSTER AS THE BASIS OF THE INNOVATION SYSTEM

Abstract. Searching for new approaches to the organization and management of innovative activities at the country level, as well as creating a favorable environment for the creation, distribution and commercialization of innovations, were considered.

Key words: industrial clusters, innovation, entrepreneurship, efficiency, innovative infrastructure, service.

КЛАСТЕР КАК ОСНОВА ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. Рассмотрен поиск новых подходов к организации и управлению инновационной деятельностью на уровне страны, а также созданию благоприятной среды для создания, распространения и коммерциализации инноваций.

Ключевые слова: промышленные кластеры, инновации, предпринимательство, эффективность, инновационная инфраструктура, сервис.

Kirish. Innovatsion klasterlar rivojlanishi mavjud sanoat kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot natijalarini intensiv ravishda joriy qilish, yirik korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjiriga kirish uchun yangi kichik va o'rta korxonalar davlat-hususiy sherikchiligi asosida tashkil etish hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni boshqarishda tarmoq yondashuvidan foydalanish ustunlik qiladi, bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotni innovatsion jihatdan to'liq yangilashga imkon bermaydi. Respublikada YaIMning fan sig'imkorligi darajasi hanuz pastligicha qolmoqda.

Shu sababli mamlakat miqyosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda yangi yondashuvlarni izlash, shuningdek innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirish borasida qulay muhit yuzaga keltirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy iqtisodiyotda klasterli yondashuv hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va tashkilotlarning raqobatbardoshlik hamda innovatsion faollik darajasini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi, chunki, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi tajribasi haqiqatdan ham, iqtisodiyotni innovatsion jihatdan rivojlantirishda klasterlashtirish amaliyotining o'rni muhim ekanligidan dalolat beradi.

Dunyo xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan jarayon yangi iqtisodiy tushunchalarning kirib kelishi, iqtisodiyotda yangi yuqori texnologik kompyuter-informatsion maxsulotlar ishlab chiqarish, ilm talab maxsulotlarni ko'plab ishlab chiqarilishi ta'sirida iqtisodiyot tarmoqlari shakllanmoqda. Buning ta'sirida investitsion iqlimni o'zgarishi, raqobatni rivojlanishi, inson kapitaliga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, iqtisodiyotni

innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlanishi ta'sirida yuqori texnologik maxsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar qishloq xo'jaligi tizimida agrosanoat klasterlar tizimi tashkil topadi.

Mamlakat qishloq xo'jaligidagi innovatsion yangiliklar ta'sirida samarali iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari sifatida agrosanoat klasterlari faoliyatini tashkil etish va rivojlanishini jadallashtirish sanaladi. Innovatsiyalar to'g'risidagi dastlabki ilmiy ishlanmalar XX asrning yigirma yilligida Y.SHumpeter tomonidan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga "yangiliklar diffuziyasi" deb ham nomlanadi.

XX asr oxiridan boshlab dunyo xo'jaligida ro'y berayotgan o'zgarishlar zaminida mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimlarini shakllantirish sanaladi, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha, geografik yaqin bo'lgan korxonalar va ularga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni o'z ichiga olgan «klaster tizimini» yaratishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligini bugungi kun davr o'zgarishlaridan kelib chiqqan xolda tashkil etish orqali "klaster", "klasterizatsiya", "klaster siyosati" kabi tushunchalar kirib kelmoqda. Qishloq xo'jaligini klasterlashtirish siyosati mamlakat mintaqalarida qishloq xo'jaligini yangi tuzilmalarini tashkil topishi orqali maxalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi ortadi va yangi innovatsion impuls ta'sirida qishloq xo'jaligida yangi maxsulotlar turlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

"Klaster – Germaniya iqtisodiyoti rivojlatirib, Evropa Ittifoqi doirasida iqtisodiy o'sishning motori sifatida maydonga chiqdi. Finlandiya iqtisodiyotida yuqori o'sish darajasini ko'rsatdi"¹. Shuningdek, "AQSH iqtisodiyotidagi yarmi ko'p tashkilotlar shu modelda faoliyat ko'rsatishadi"².

Qishloq xo'jaligi tizimida klasterlarni tashkil etishda tuman va viloyatda yaqin joylashgan bir-biriga yaqin bo'lgan sohalarning o'zaro xamkorligi va qishloq xo'jaligi korxonalari va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish bilan birgalikda innovatsion faoliyatni tashkil etish asosida yangi turdagi qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirishdan iborat.

Aksariyat olimlar ta'kidlashicha, barcha klasterlar u yoki bu darajada innovatsion rivojlanishga, innovatsion jarayonni u yoki bu darajada tezlashtirishga hissa qo'shadi va hatto ularning ba'zilar mazkur vazifani bajarishga ixtisoslashganligi bilan ham ajralib turadi. Aynan ushbu g'oya innovatsion klasterlar kontseptsiyasining asosini tashkil qiladi. Innovatsion klasterlar innovatsiyalarga moyil bo'lib, bu firmalarning o'z faoliyatlarini tashkil etish va rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiy sub'ektlarning innovatsiyalarni qabul qilishga moyilligini oshirish, biznesni oqilona tashkil qilish, mahsuldorlikni oshirish kabi afzalliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tahlil. "Klaster" tushunchasini talqin qilish borasidagi yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda, innovatsion-sanoat klasteri bu - muayyan bir hududda geografik jihatdan mahalliylashgan, bir-birini to'ldiruvchi, raqobatdosh iqtisodiy sub'ektlar majmuidir. Bunda klaster sub'ektlari o'zaro, shuningdek, davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan innovatsiyalarni yoyish borasida qulay muhit yaratish, shuningdek, klaster sub'ektlari,

¹В.М. Джуха, А.В. Курицын, И.С. Штапова. Экономика отраслевых рынков: учебное пособие/ - Ростов н/Д: Феникс, 2010 г.

²В. П.Акатъев, М. Б.Алексеева, В. Ф. Богачев и др.; под ред. В. Ф. Богачева, А. Г. Столбова. Формирование промышленных кластеров в концепции инновационного развития региона / - СПб.: Инфо-да, 2009 г.

hududlar va milliy iqtisodiyotning innovatsion faolligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida birlashadilar.

Klasterning uch tuzilmaviy unsurlarini ajratib ko'rsatadi:

ishlab chiqaruvchilar, bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar, resurslar va xizmatlar etkazib beruvchilar, sotuvchilar, xaridorlar hamda ilmiy-ma'rifiy markazni o'z ichiga olgan "biznes" unsuri;

universitet, biznes maktab, turli xil uyushma, savdo-sanoat palatasi va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "mahalliy muassasalar" unsuri;

davlat tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organ-larini o'z ichiga oluvchi, "davlat va hududiy boshqaruv organlari" unsuri.

Klasterlarni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad, muayyan bir iqtisodiy natija-raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishishdan iboratdir, bu, o'z navbatida, alohida olingan tashkilot samaradorligini oshirishga va umumiy tarzda iqtisodiy taraqqiyotning tezlashishiga olib keladi.

Klaster modelini joriy etishning asosiy vazifasi - tadbirkorlarning psixologiyasini o'zgartirish, umumiy iqtisodiy manfaatlar doirasida barcha klaster ishtirokchilarining halol, ochiq va o'zaro manfaatli hamkorligining o'ziga xos imkoniyatlarini tushunib etishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Klasterlarni yaratishdan kutilayotgan iqtisodiy samara quyidagilar bilan izohlanadi:

chegara hududlarda joylashgan klaster sub'ektlarining yalpi salohiyatidan yanada samarali foydalanishga imkon beruvchi, savdo-ishlab chiqarish kooperatsiyasi;

ishlarning bir qismini aniq faoliyatga ixtisoslashgan hamkorlarga o'tkazish yo'li bilan ishlab chiqarish bazasini modernizatsiyalash xarajatlarini kamaytirish;

uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish asosida ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar bilan ta'minlash jarayonlari samaradorligini oshirish ;

mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish orqali ayrim boshqaruv funktsiyalarining samaradorligini oshirish;

investitsion-moliyaviy kooperatsiyaning ishonchliligini oshirish.

Klasterlar innovatsion tizim sifatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Klasterli yondashuv innovatsion ilmiy-texnik yo'nalishlarning paydo bo'lishini rag'batlantirish, ularni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan bir qatorda, ta'lim, fan va biznes sohasini bilvosita qo'llab-quvvatlash orqali bilimlar iqtisodiyoti asoslarini yaratishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Innovatsion klasterlarning boshqa iqtisodiy birlashmalardan farqi shundaki, klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar o'zlarining yuridik maqomini saqlagan holda, to'lig'icha bir-birlari bilan qo'shilmaydilar, ular shunchaki, klasterni tashkil etuvchi va undan tashqarida joylashgan boshqa korxonalar bilan birgalikda yaqindan hamkorlik qilishga imkon beruvchi o'zaro ta'sir mexanizmini yaratadilar.

Xulosa. Bugungi kunda innovatsion klaster yuqori raqobatbardoshlikka erishishning eng samarali shakli sifatida qabul qilinadi va turli tashkilotlarning (sanoat kompaniyalari, tadqiqot markazlari, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari) birlashmasi sifatida, iqtisodiy tizimni muvofiqlashtirishning ikki usuli – kompaniyaning ichki ierarxiyasi va bozor mexanizmidan

foydalangan holda, yangi bilim, ilmiy kashfiyot va ixtirolarni tezroq va samarali tarqatishga imkon beruvchi afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsiyalar borasidagi davlat siyosatida o'ziga xos yangicha jihatlar shakllandi va ushbu jihatlar eng avvalo, quyidagilarda namoyon bo'lishi lozim:

–innovatsion siyosatning asosiy mazmuni barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion faoliyatini ixtisoslashtirilgan bilim tarmoq-larini yaratishga qaratilgan klaster strategiyalarini shakllantirish orqali faollashtirish hisoblanadi. Hozirda innovatsion siyosatning yangi klaster-tarmoq tamoyili shakllanishi;

–hududlararo innovatsion hamkorlikning tabiati ham o'zgarib bormoqda. Xususan, klaster strategiyalarini amalga oshirish va hududiy- innovatsion tarmoqlarni shakllantirish transmilliy o'zaro aloqalarni rivojlantirish va hududlararo tarmoq tuzilmalarini shakllantirishga imkon berdi.

Ular hududlarning o'zi tomonidan yaratiladi, innovatsion rivojlanishning umumiy maqsadlari va shu kabilarni o'z ichiga olgan holda, hudud va shuningdek, hududdan tashqari tavsifga egaligi bilan ajralib turadi.

Respublikada innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash, biznes va davlatning faol hamkorligini ta'minlash, milliy innovatsion infratuzilmani yaratish orqali klaster siyosatini amalga oshirish lozim.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi // -T.: "O'zbekiston". 2022. -412 b.
2. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.
3. Shokirova F.N. Innovatsiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim nazariy jihatlar. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018.
4. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE "BRAINSTORMING" METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. Bulletin of Science and Education, (6-3 (109)), 56-61.
5. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In E3S Web of Conferences (Vol. 386). EDP Sciences.